INTERFAOL METODLARNING DARS SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

ВЛИЯНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ УРОКОВ

THE IMPACT OF INTERACTIVE METHODS ON LESSON EFFECTIVENESS

Ashurova Hulkaroy

Farg'ona davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida interfaol metodlardan foydalanishning dars samaradorligini oshirishdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi an'anaviy ta'lim uslublaridan farqli ravishda, interfaol metodlarning talabalar (o'quvchilar)da mustaqil fikrlash, jamoada ishlash va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishdagi ta'sirini aniqlashdan iborat. Maqolada dars jarayonida pedagogik texnologiyalarni to'g'ri qo'llash orqali o'zlashtirish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada ko'tarish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, dars samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi omillar — o'quvchilarning motivatsiyasi, darsdagi faolligi va axborotni qabul qilish darajasi interfaol muhit misolida dalillangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interfaol yondashuv ta'lim sifatini oshirish bilan birga, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlarini mustahkamlaydi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается роль и значение использования интерактивных методов в повышении эффективности уроков в современной системе образования. Цель исследования – определить влияние интерактивных методов на формирование у учащихся (учеников) самостоятельного мышления, навыков командной работы и решения проблем в отличие от традиционных методов обучения. В статье анализируются возможности значительного повышения результатов обучения за счет

правильного использования педагогических технологий в учебном процессе. Также на примере интерактивной среды обосновываются факторы, непосредственно влияющие на эффективность урока – мотивация учащихся, активность на уроке и уровень усвоения информации. Результаты исследования показывают, что интерактивный подход, наряду с повышением качества образования, укрепляет предметно-предметные отношения между учителем и учеником.

ABSTRACT

This article discusses the role and importance of using interactive methods in improving the effectiveness of lessons in the modern education system. The purpose of the study is to determine the impact of interactive methods on the formation of independent thinking, teamwork, and problem-solving skills in students (pupils) in contrast to traditional teaching methods. The article analyzes the possibilities of significantly increasing learning outcomes through the correct use of pedagogical technologies in the lesson process. Also, the factors that directly affect the effectiveness of the lesson - student motivation, activity in the lesson, and the level of information reception - are substantiated by the example of an interactive environment. The results of the study show that the interactive approach, along with improving the quality of education, strengthens the subject-subject relationship between the teacher and the student.

Kalit so‘zlar: interfaol metodlar, dars samaradorligi, zamonaviy ta’lim, motivatsiya, pedagogik texnologiya, innovatsion yondashuv, ta’lim sifati.

Ключевые слова: интерактивные методы, эффективность урока, современное образование, мотивация, педагогические технологии, инновационный подход, качество образования.

Keywords: interactive methods, lesson effectiveness, modern education, motivation, pedagogical technology, innovative approach, quality of education.

KIRISH

Interfaol usullar o‘quvchini o‘quv-tarbiya jarayonining chinakam sub'ektiga, ya’ni oddiy tinglovchidan qatnashuvchi , faol ishtirokchiga aylantirib, uni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Buning esa bir qancha usullari va metodlar mavjud hisoblanadi. Bu usullar o‘quvchilarning fikrini uyg‘otadi, dunyoqarashini kengaytiradi, ular ta'lim kechimining ob'ekti sifatida o‘zlari o‘qibgina qolmay, bu jarayonning ijrochilari sifatida bir-birlarini o‘qitish va tarbiyalash bilan ham shug‘ullanishadi, bir-birlari bilan ham o‘zaro fikr almashinuv jarayonida ishtirok etadilar. Dunyo pedagogikasida XX asr boshlarida paydo bo‘lib, o‘sha asrning 60-yillarida shakllangan va asr oxirlarida bizga kirib kela boshlagan interfaol usullardan foydalanishning u yoki bu jihatlari borasida bir qator tadqiqot ishlari qilingan.

G.Selevko, A.Gin va boshqa chet ellik olimlar o‘z tadqiqotlarida turli davrlarda turli ta'lim muassasalarida interfaol usullarni qo‘llash yo‘llari to‘g‘risida turli daraja va miqyoslarda o‘z qarashlarini bildirganlar.

Tadqiqotimi davomida shuni ham ta’kidlab o‘tishim kerakki, davlatimiz tomonidan o‘tgan qisqa vaqtlar davomida 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”da “Oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish”[1] to‘liq kafolatlantirilganligi bu o‘z navbatida ta’lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta’limni modernizatsiya qilish hamda yangi ta’lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga , ularni sinovdan o‘tkazishga , ta’lim jarayoniga joriy etishga qarartilgan muhim masala bo‘lgan. Davlatimiz tomonidan ta’lim sifatiga

1 Mirziyoyev Sh.M. Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston- Toshkent-2017.3-bet

berilayotgan katta e'tibor, jahon ta'lim standartlari darajasiga ko'tarilish bosqichlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI VA METODOLOGIYA

Musiqiy ta'limda interfaol metodning o'ziga xosligi mavjud, musiqiy bilimlarni yanada chuqurroq berilishiga yordam beradi. Musiqa darslarida interfaol metod deganda shunchaki "savol-javob" emas, balki "musiqiy muloqot" tushuniladi. Uning mazmuni quyidagi 3 ta ustun ustiga quriladi:

- Dialogik muloqot: Talaba o'qituvchi bilan, sinfdoshlari bilan va eng muhimi musiqiy asar (kompozitor) bilan dialogga kirishadi.
- Kollektiv izlanish: Masalan, musiqiy asarning janrini yoki dramaturgiyasini guruh bo'lib tahlil qilish. Bunda har bir talabaning fikri inobatga olinadi. Musiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi asosiy interfaol metodlar turlari haqida ma'lumot berib o'tsam, interfaol metodning mazmuni quyidagi aniq texnikalar orqali amalga oshirish mumkin. Misol tariqasida, "Aqliy hujum" (Brainstorming): Musiqiy asarning xarakteri yoki uning sirlarini topish uchun barcha guruh a'zolarining g'oyalarini yig'ish. Klaster" (Tarmoqlash): Markaziy musiqiy tushuncha (masalan, "Simfoniya") atrofida uning xususiyatlarini tizimlashtirish. "Loyiha" metodi: Talabalarga ma'lum bir mavzuda (masalan, "Motsart va zamonaviylik") mustaqil tadqiqot o'tkazish topshirig'ini berish. "Muammoli vaziyat" metodi esa, talabaga yechimi tayyor bo'lmagan musiqiy topshiriq berish (masalan, "Ushbu kuyni qanday qilib dramatikroq yangratish mumkin?") hisoblanadi. Ana shu metodlar hozirda yanada zamonaviylashib musiqiy bilimni qabul qilishda muhim hisoblanadi. Interfaol metodlarni zamnaviy pedagogikamizda qanday foydalanishidan oldin, uning qanday kirib kelgani haqida bilish uchun , bizga avvalo tarixi kerak bo'ladi.

Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida munozarani boshlar ekan, ishtirokchilar ya'ni o'quvchilar ongiga quyidagilarni yetkaza olishi kerak:

a) mashg‘ulot har bir ishtirokchiga albatta foydali bo‘ladi va ular bir-birlariga yordam berish uchun kelganlar;

b) munozara o‘zaro muloqotning bir shakli bo‘lib, har bir ishtirokchi bir-biriga ochiq va samimiy munosabatda bo‘lsin;

v) munozara ishtirokchilarning o‘zaro tajribalarini almashinishlari uchun qulay sharoitdir;

g) fikr bayon etishda kerak bo‘lsa tavakkal qilaylik, lekin indamaslik shiorimiz bo‘lmasin;

d) munozara paytida ko‘p yozish shart emas;

e) agar biror narsa tushunarli bo‘lmasa, uni so‘rashdan tortinmang;

j) bilgan bilimlarimizni bir-birimizdan ayamaymiz, chunki boshqalar ham bundan manfaatdor bo‘lsinlar, «yashiringan bilim - bilim emas» ligi unutmaylik! Shuningdek, mashg’ulot davomida yozma bahs o‘tkazish usullarini qo’llash manfaatli bo’ladi. Agar mashg‘ulotlar bir-birlarini yaxshi tanimaydigan boshlangich guruhlarda boshlangan bo‘lsa, «tanishish» mashqlarini o‘tkazish, albatta ishni kichik guruhlardan boshlash lozim.

Bunda erkin yo‘naltirilmagan bahs shaklini qo‘llash o’rinliroq. Bunda o‘qituvchi ishtirokchilarga bir-birlarini yaxshi tanib olsalar, birgalikda harakat qilsalar, umumiy ish uchun manfaatli bo‘lgan natijalarga erishish mumkinligini tushuntirishi lozim2.

Interfaol metodlarning ildizlari qadimga borib taqaladi, lekin uning ilmiy tizim sifatida shakllanishi XX asrning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Quyida ushbu jarayonni bosqichma-bosqich ko‘rib chiqamiz. Masalan, eng birinchi bo‘lib qadimgi davr (ibtidoiy shakllar)dan boshlasak, interfaol usulining eng qadimgi ko‘rinishi Sokrat suhbatlari (miloddan avvalgi V asr) dan boshlanganini ko‘rishimiz mumkin. Osha davrlarda Sokrat shogirdlariga tayyor ma'lumot

2 Rizayeva N.M. Interfaol ta’lim usullarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning psixologik ahamiyati.Ilmiy maqola.4-bet.

bermagan, aksincha, savol-javoblar (dialog) orqali ularni haqiqatni mustaqil topishga majbur qilgan , bu bilan esa tafakkurini shakllanishiga ham katta yordam bergan. Savol-javob shakli o‘quvchi – talabalarni ham ilmiy jihatdan, ham tafakkurini rivojlantiradi.

Musiqada Sharqning "ustoz-shogird" an'anasida ham interfaollik mavjud bo‘lgan, ya'ni shogird ustozning ijrosini nafaqat tinglagan, balki u bilan birga ijod (improvizatsiya) qilgan. Shogird o‘zining fikr va mulohazalarini bemalol bayon ettira olgan, bu bilan esa bilim darajasini ham shakllantirgan hisoblanadi.

XX asr boshlari (ilmiy asoslanishi)ga kelib bu yo‘nalish yanada rivojlanib bordi. XX asrning 20-30-yillarida pedagogikada "Progressiv ta'lim" harakati vujudga keldi. Jon Dyui (AQSH) olimi ham bu usulni rivojlanishida o‘zining hissasini qo‘shgan. U ta'limni "hayotga tayyorgarlik emas, balki hayotning o‘zi" deb atadi. Uning "learning by doing" (bajarish orqali o‘rganish) prinsipi interfaol metodlarning zamonaviy poydevori bo‘ldi desak to‘g‘ri bo‘ladi. Yana shu qatorda mashhur olim Lev Vigotskiy ham o‘zining ta’limotini yaratgan hisoblanadi. Uning 1930-yillardagi "Ijtimoiy konstruktivizm" nazariyasi va "Yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi qarashlari talabaning boshqalar bilan muloqotda bilim olishi samaraliroq ekanligini ilmiy isbotladi. Bu fikr mana hozirgi zamnaviy pedagogikamizda ham keng foydalanilmoqda. Talabalar o‘z fikrlarini muloqot qilish, munozalar vaqtida bemalol bildirib, o‘zlaridagi bilimni yanada sakllantirib, kengaytirmoqdalar. Bu usul zamonaviy pedagogikamizda interfaol metodlardan foydalanishimizda yanada rivojlanmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

XXI asr (Axborolashgan interfaollik) hisoblanadi. Bugungi kunda interfaollik yangi bosqichga chiqdi. Endi u nafaqat insonlararo muloqot, balki inson va texnologiya (kompyuter dasturlari, sun'iy intellekt, interfaol doskalar)

o‘rtasidagi muloqotni ham o‘z ichiga oladi. Interfaol metodlar orqali ta’lim oluvchilar faollashadi, mustaqil fikrlashga o‘rganadi , shu bilan bir qatorda ilmiyligi va dunyoqarashi ham kengayadi. Ta’lim jarayonining markazida ta’lim olish jarayonida kerakli bo‘lgan metodlar ishtirok etadi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi ya’ni bir so‘z bilan aytganda faollashtiradi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo’ladi :

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo’lgan o’qish-o’rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag’batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;
- ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo’llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o’rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Metodlar hozirgi zamonaviy pedagogikamizda jadal rivojlanib, shakllanib bormoqda. Bularga quyidagilar kiradi:

-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – kompyuter, proyektor, interfaol doskalar orqali darslarni vizuallashtirish;

-Elektron ta’lim platformalari – Moodle, Google Classroom, Coursera kabi tizimlar orqali masofaviy ta’limni tashkil etish.

-Simulyatsiya va virtual laboratoriyalar – tabiiy fanlar va muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish.

-Mobil ilovalar va onlayn test tizimlari – Quizizz, Kahoot, Mentimeter, Blooket kabi vositalar orqali bilimlarni baholash va interaktiv mashg‘ulotlar o‘tkazish.

Interfaol metodlarni “tashkil etish” tushunchasi - odatda sust (passiv) "ma’ruza o‘qish"dan voz kechib, o‘rganuvchi markazda bo‘lgan dinamik muhitga o‘tishni anglatadi. Tashkil etishning asosiy tamoyillari ham mavjud hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlar dars samaradorligini oshiradi hamda o‘quvchlarni darsga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi. Interfaol metodlar o‘quvchilarni darsda passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘lishga undaydi. Bu esa darsga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. O‘quvchilar mustaqil fikrlaydi, savollarga o‘z qarashlari asosida javob beradi, muammolarga yechim topishga intiladi. Amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Hayotiy vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar real hayotda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Mirziyoyev. Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.O‘zbekiston, Toshkent – 2022. 235-bet.

2. Rizayeva N.M. INTERFAOL TA'LIM USULLARINI MUVAFFAQIYATLI AMALGA OSHIRISHNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI.Ilmiy maqola. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.

3.Tuychiyeva I.I. Pedagogik mahurat. O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona – 2024. 71-bet.

4. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.

5. Piaget J. Child's Conception of the World. – London: Routledge, 1929.

6. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.

7. Mehonov M. H, Abduraximov Z.A. INTERFAOL METODLAR VA ULARNING TA’LIM JARAYONIDAGI MOHIYATI. Ilmiy maqola.